

VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN JINOYAT SODIR ETILISHIGA SABAB BO'LAYOTGAN OMILLAR VA BARTARAF ETISH CHORALARI

Valiboyev Izzatbek To'xtasin o'g'li

Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14019311>

Annotatsiya. Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishiga sabab bo'layotgan omillar va uni bartaraf etish yo'llari, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning statistik ma'lumotlari, uning huquqiy oqibatlari va dunyoda voyaga yetmaganlar jinoyatlarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarni tahlil qilish muhokama qilingan.

kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, jinoyat, javobgarlik choralari, etiologik omillar va o'tkazilgan tadqiqotlar.

ФАКТОРЫ, ВЫЗЫВАЮЩИЕ СОВЕРШЕНИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЙ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИМИ, И МЕРЫ ИСПРАВЛЕНИЯ

Аннотация. В данной статье обсуждаются факторы, вызывающие совершение преступлений несовершеннолетними, и пути их устранения, статистические данные о преступлениях, совершаемых несовершеннолетними, их правовые последствия и анализ исследований, проведенных по изучению преступлений несовершеннолетних в мире.

ключевые слова: несовершеннолетние, преступление, меры ответственности, этиологические факторы и проведенные исследования.

FACTORS CAUSING THE COMMITMENT OF CRIMES BY JUVENILE PERSONS AND REMEDIATION MEASURES

Abstract. This article discusses the factors contributing to juvenile delinquency and ways to prevent it, statistical data on juvenile delinquency, its legal consequences, and an analysis of research conducted on juvenile delinquency worldwide.

keywords: minors, crime, liability measures, ethological factors, and research conducted.

Kirish. Ma'lumki, yoshlar har bir davlatning ajralmas qismi bo'lib, uni kelgusida rivojiga hamda kuch-qudratiga hissa qo'shuvchi ustuni hisoblanadi. Yurtimizda yoshlarning har tomonlama rivojlanishlari uchun yaratib berilayotgan shart-sharoitlar, navqiron avlodni sog'lom turmush tarzida kamol toptirish va dunyo bozoriga professional mutaxassislar taqdim etish maqsad qilingan. O'sib kelayotgan yosh avlod yurt taqdirini hal etishda bevosita ishtirok etuvchi davlatning poydevoridir.

So'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida yosh-avlodni turli xil buzg'unchi yo'llardan himoya qilish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va sport bilan mashg'ul bo'lishlari uchun bir qator imkoniyatlar yaratilmoqda. Mazkur imkoniyatlardan bemaqsad hamda noto'g'ri yo'lda foydalanish o'z navbatida yoshlar o'rtasida jinoyatchilikni ortishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining umumiy qismida voyaga yetmaganlarga nisbatan javobgarlik choralarini mustahkamlangan bo'lib, adolatlilik prinsipi bo'yicha voyaga yetmagan shaxslar tomonidan ham sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish uchun jinoiy-javobgarlikka tortilishi nazarda tutilgan.¹

Shuningdek, voyaga yetmagan shaxslarning jinoiy javobgarligi va ularga nisbatan jazo choralari qo'llanilishi jinoyat qonunchiligining ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Qolaversa, mazkur javobgarlik belgilovchi huquqiy normalar adolat, insonparvarlik, qonuniylik va bu kabi boshqa prinsiplar harakatga kelishiga huquqiy asos bo'ladi.¹ JK muvofiq, voyaga yetmaganlarga nisbatan javobgarlik belgilovchi qoidalar insonparvarlik va odillik prinsiplaridan kelib chiqishi haqidagi mulohazalar Toshkent shahar yuridik texnikumi jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasini mudiri Sattorova Muharram Abdurazzoqovna tomonidan "VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI" ¹ nomli ilmiy maqolada nazarda tutilgan.¹ Shu bilan birga, mazkur ilmiy maqolaga ko'ra, jinoyat kodeksida belgilangan umumiy javobgarlik masalalari voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llanilmasligi aks ettirilgan. Buning sababi sifatida, voyaga yetmagan shaxslar jismoniy hamda aqliy jihatdan rivojlanmaganligi huquqiy himoyaga va e'tiborga muhtojligi ko'rsatib o'tilgan.¹

Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarning ruhiy holatini va ularda ta'sirchanlik hamda taqlidchilik xususiyati yuqori bo'lganligini hisobga olib, ularga nisbatan yengilroq turdagi jazo choralari qo'llanilishi jinoiy jazo maqsadlariga erishish imkonini berishi ko'zda tutilgan.¹

Muallif tomonidan voyaga yetmaganga nisbatan sodir etgan jinoyatlari uchun jinoyat kodeksida ular uchun alohida javobgarlikni belgilovchi qoidalar mavjudligi insonparvarlik va ijtimoiy nuqtayi nazardan maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan.¹

Muhokama va natijalar. Ta'kidlash joizki, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning miqdori so'ngi vaqtlarda ortib borayotgani kishini taajjubga solmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 2023-yilda 3600 nafar voyaga yetmagan shaxslar jinoyat sodir etgan.

¹ ISSN: 2181-1784 Sattorova Muharram Abdurazzoqovna Toshkent shahar yuridik texnikumi jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasini mudiri "VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI" ISSUE 11, Volume 2, November 2022 <https://cyberleninka.ru/article/n/voyaga-yetmaganlar-jinoyatchiligining-o-ziga-xos-xususiyatlari/viewer>

Mazkur ko'rsatkich, oldingi besh yil davomidagi sodir etilgan jinoyatlar ko'rsatkichidan 4.4 barobarga oshganini ko'rsatmoqda. Yil davomida voyaga yetmaganlar tomonidan tovlamachilik 70%, bezorilik 60%, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish 40%, nomusga tegish va odam o'ldirishga urinish jinoyatlari 20% ko'paygani aniqlangan. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar eng ko'p 700 nafari Farg'ona viloyatiga to'g'ri kelgan.

Keyingi o'rinlarda, Toshkent shahri – 545, Namangan viloyati – 451, va Toshkent viloyati – 345 kishi. Eng past ko'rsatkichlar Jizzax – 54, Navoiy – 62, va Xorazm – 66 nafar voyaga yetmagan shaxs qayd etilgan.²

²Har bir jinoyat o'zining ijtimoiy xavflilik darajasi, sodir etish vaqti va uslubi hamda sharoiti bilan qolgan jinoyat turlaridan farq qiladi. Jinoyat qonunchiligiga ko'ra, 14 yoshga to'lgan aqli raso shaxs voyaga yetmagan hisoblanadi. Voyaga yetmagan shaxs hisoblanishi uchun 18 yoshga to'lmagan bo'lishi kerak. Jinoyat kodeksining 17-moddasiga muvofiq, jinoiy huquqiy munosabatlarda ishtirok etganlik uchun javobgarlik masalasining qo'llanilishi umumiy subyekt yoshi sifatida 16 yoshga to'lgan aqli raso shaxslarga tatbiq etilishi nazarda tutilgan.

Mazkur normativ huquqiy hujjatga muvofiq, ayrim jinoyat turlari uchun subyekt yoshi 14 yosh etib belgilangan. Masalan: qasddan odam o'ldirish (JK 97-m 1-q), qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JK 104-moddasi), qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish (JK 105-m), nomusga tegish (JK 118-m), bosqinchilik (JK 164-m), tovlamachilik (JK 165-m), talonchilik (JK 166-m), firibgarlik (JK 168-m), o'g'irlik (JK 169-m), bezorilik (JK 277-m.2-,3-q.)¹

Voyaga yetmagan orasida jinoyatchilikning keng tarqalishi dunyo hamjamiyatini jiddiy tashvishga solmoqda. Dunyo miqyosida jinoyat sodir etishning yuqori bo'lgan vaqti ko'p holatlarda balog'at davridagi yoshlarda uchramoqda. Ushbu davrida jinoyat sodir etishga aloqadorlik voyaga yetmaganlarning sog'lig'iga, xulq-atvoriga va hayot tarziga salbiy ta'sir ko'rsatib jinoyatchilikni barvaqt sodir etilishiga sabab bo'lmoqda. Misol tariqasida, 11-18 yoshdagi shaxslar jinoyat sodir etishda yuqori darajali psixologik stress, noto'g'ri uyqu va qoniqarsiz imtihon natijalari bilan bog'liqligi aniqlangan.²

³Bundan tashqari, AQSHning voyaga yetmaganlar bo'yicha jinoyatchilikni oldini olish boshqarmasi tomonidan boshqarmaning yuqori xavfga moyil bo'lgan va zo'ravon yoshlar bilan

¹ISSN: 2181-1784 Sattorova Muharram Abdurazzoqovna Toshkent shahar yuridik texnikumi jinoiy-huquqiy fanlar kafedrası mudiri "VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI" ISSUE 11, Volume 2, November 2022 <https://cyberleninka.ru/article/n/voyaga-yetmaganlar-jinoyatchiligining-o-ziga-xos-xususiyatlari/viewer>

²O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi info@stat.uz <https://www.stat.uz/uz/>

³ISSN: 2181-1784 Sattorova Muharram Abdurazzoqovna Toshkent shahar yuridik texnikumi jinoiy-huquqiy fanlar kafedrası mudiri "VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI"

ishlash guruhining 22 nafar tadqiqotchisi ikki yil davomida voyaga yetmaganlar orasida jinoyat sodir etishda erta xavf hamda himoya omillarini aniqlash shuningdek mazkur toifadagi yoshlarning jinoyat sodir etishga olib borgan sabablarni o'rganish maqsadida amaliy tadqiqot olib borilgan. Mazkur olib borilgan tadqiqotga ko'ra, quyidagi omillar voyaga yetmaganlar orasida jinoyat sodir etishga sabab bo'layotganligi aniqlangan: a) individual omil, b) oilaviy omil, c) maktab omili, d) tengdoshlar bilan bog'liq omillar va e) jamiyat hamda qo'shnichilik omili.¹

Individual omil – ruhiy va ichki kechinmalar buzilishi, diqqatni jamla olmaslik ya'ni bezovtalik, tajovuzkorlik, zo'ravonlik harakatini erta boshlash va g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning boshqa shakllariga jalb qilinish holatlarida yuzaga kelishi aniqlangan. **Oilaviy omil** – ota yoki onaning jinoyatga sodir etishga aloqadorligi, bolalarga nisbatan zo'ravonlik, oilada boshqaruvning salbiy jihatlari va ota-ona ajrashishi. **Maktab omili** – maktab bilan aloqaning pastligi, bir maktabdan boshqa maktabga tez-tez o'tish holatlari va maktabdagi qoniqarsiz akademik ko'rsatkichlar. **Tengdoshlar bilan bog'liq omillar** – jamiyat tomonidan qabul qilib bo'lmaydigan salbiy xulq atvor ega aka-ukalar, ushbu toifadagi do'stlar va jinoiy guruhga a'zolik. **Jamiyat hamda qo'shnichilik omili** – oilaviy daromadning pastligi, yashab turgan jamiyatda jinoyatchilik holatining yuqoriligi va irqiy kamsitishlarga duchor bo'lish. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillar voyaga yetmagan shaxslarni jinoyat sodir etishida asosiy vosita ekanligi aniqlangan.¹

Shu bilan birga 2001-yilda AQSHda Cheryl Slomkowski, Richard Rende,⁴ Katherine J. Conger, Ronald L. Simons, Rand D va Congerlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning aksariyati shahar markazlarida yashovchi yoshlarda yuqori darajada ekanligi qayd etilgan.¹ Qolaversa, ushbu tadqiqot jarayonida Amerika shtatlarida voyaga yetmagan yoshlarning jinoyatchiligini keltirib chiqaruvchi ba'zi etiologik omillar aniqlangan.¹ Mazkur omillar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ❖ ota-onalarning past ma'lumotliligi;
- ❖ ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning pastligi;

ISSUE 11, Volume 2, November 2022 <https://cyberleninka.ru/article/n/voyaga-yetmaganlar-jinoyatchiligining-o-ziga-xos-xususiyatlari/viewer>

²Ayano, G., Rooney, R., Pollard, C.M., Dantas, J.A.R., Lobo, R., Jeemi, Z., Burns, S., Cunningham, R., Monterosso, S., Millar, L., Hassan, S., Dovchin, S., Oliver, R., Coleman, K., Alati, R. **Risk and protective factors of youth crime: An umbrella review of systematic reviews and meta-analyses** (2024) *Clinical Psychology Review*, 113, art. no. 102479, . <https://www.scopus.com/inward/record.uri?eid=2-s2.0-> DOI: 10.1016/j.cpr.2024.102479 Document Type: Article Publication Stage: Final Source: Scopus

¹ J. David Hawkins, Todd I. Herrenkohl, David P. Farrington, Devon Brewer, Richard F. Catalano, Tracy W. Harachi, and Lynn Cothorn **Predictors of Youth Violence** U.S. Department of Justice Office of Justice Programs *Office of Juvenile Justice and Delinquency Prevention Juvenile Justice Clearinghouse Publication Reprint/Feedback P.O. Box 6000 Rockville, MD 20849–6000 800–638–8736 301–519–5600 (fax) E-Mail: askncjrs@ncjrs.org*

- ❖ ishsizlik;
- ❖ ota-ona nazoratining sustligi;

Shuningdek, Turkiyada voyaga yetmaganlarni jinoyat sodir etishga turtki bo'layotgan ichki va tashqi omillarni aniqlash maqsadida o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, Turkiyada bir yil ichida 137 334 kishi bunda 6.4% ayollar, 93,6% erkaklar sodir etgan jinoyatlari uchun hibsga olingan. (Turkiya Politsiyasining 2000-yildagi ma'lumoti bo'yicha).¹ Politsiya tomonidan qo'lga olinganlarning uch foizi 15 yoshdan kichik bo'lgan bolalar, 11,7 foizi esa 15 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan yoshlar ekanligi qayd etilgan.¹ Mazkur tadqiqotga muvofiq, 1999-yilda Litva davlatida 5070 ta yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar o'rganib chiqilgan bo'lib, bu barcha jinoyatlarning 16 foizini tashkil etganligi aniqlangan. Litva davlatida 1999-yillar davomida 14 yoshli bolalar tomonidan ko'proq jinoyatlar sodir etilganligi ma'lum qilingan.(Snieckute)¹. Boshqa bir tadqiqotga ko'ra, Yaponiyada 1996-yilda 14-yoshdan 16-yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning jinoyatchilik darajasi yuqorilagini ko'rsatilgan. (Sakuta, 1996)¹.

⁵Shuningdek, 1985 va 1994-yillarda AQShda 12 va undan kichik yoshdagi voyaga yetmaganlar bilan bog'liq jinoyatchilik holatlari 32 foizga oshganligi 13 va 14 yoshdagi voyaga yetmaganlar bilan bog'liq holatlar 49% ga, katta katta yoshdagi voyaga yetmaganlar tomonidan 39% ko'tarilgani qayd etilgan. (U.S. Department of Justice., 1997)¹

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olish haqida muhokama qiladigan bo'lsak, BMT tomonidan yoshlarni jinoyat sodir etishdan himoya qilish to'g'risida yo'riqnoma ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur yo'riqnomada bolalar jinoyatchiligining oldini olishda quyidagilar asosiy vazifa etib belgilangan:²

➤ Iqtisodiy soha tomonidan kelgusi yosh avlod uchun shaxsiy rivojlanish dasturini ishlab chiqish orqali huquqiy hamda muqobil imkoniyatlarni yosh avlodga yaratib berish. Mazkur imkoniyatlar: ta'lim markazlarida voyaga yetmagan shaxslarga tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha doimiy ravishda treninglar o'tkazish va ular mehnat qilishlari uchun yangi ish o'rinlari yaratish;

➤ Ziddiyatlarni bartaraf etish, his-tuyg'ularni nazorat qilish va ijobiy jarayonlarga yoshlarni keng jalb qilish bo'yicha ta'lim dasturini ishlab chiqish. Mazkur dastur orqali, voyaga yetmagan shaxslarga sog'lom hayot-tarzida yashashni, jismoniy va aqli rivojlanish qobiliyatlarini

¹ Sakir Ozena,T, Aydin Eceb, Remzi Otoa, Yasar Tirascic, Suleyman Gorenc **Juvenile delinquency in a developing country: A province example in Turkey** International Journal of Law and Psychiatry Article in International Journal of Law and Psychiatry· July 2005 DOI: 10.1016/j.ijlp.2004.05.001 · Source: PubMed t: <https://www.researchgate.net/publication/7819603>

o'zlashtirishni, har qanday jinoyat natijasida yuzaga keladigan ⁶oqibatlarining jamiyatga hamda jinoyat sodir etgan shaxsga ta'siri haqida ma'lumot berish;

- Rekreatsion dam olish maskanlarini kengroq miqyosda foydalanishga topshirish.

Mazkur yo'nalish orqali voyaga yetmagan shaxslarni o'qish vaqtidan so'ng dam olish maskanlariga jalb etish, professional psixolik murabbiylar tomonidan ularni qiynayotgan muammolarni aniqlanishi va muammoga ijobiy yechim berish bo'yicha amaliy ko'rsatmalar taqdim etilishi maqsad qilingan. Bundan tashqari, yoshlarni o'qishdan keyin sport tadbirlariga jalb etish bu bo'yicha o'qituvchi-murabbiylar tomonidan kengroq tushunchalar berish nazarda tutilgan. Misol tariqasida; AQSHning bir qancha shtatlarida basketbol sport dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, voyaga yetmaganlarni mazkur dasturga keng jalb etish natijasida jinoyatchilik ko'rsatkichi 60 foizga kamaygani qayd etilgan. ²

Xulosa. Yuqoridagilarga asoslanib umumiy xulosa qiladigan bo'lsak, yoshlarning sog'lom muhitda hayot kechirishi nafaqat oila uchun muhim balki jamiyat uchun ham zarur hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlarni jinoyat sodir etishga undayotgan sabablari barvaqt aniqlash, yoshlarga jinoyat natijasida kelib chiqadigan huquqiy oqibat haqida oldinroq ma'lumot berish va ularni sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun shart-sharoit yaratib berish hammamiz uchun asosiy vazifa hisoblanadi. Qolaversa, maktabgacha ta'lim markazlarida ertangi kunimizning tayanchi bo'lgan yosh –avlodga har qanday jinoyatning ortida muqarrar jazo borligi, uning oqibatlari natijasida bolalarning ota-onalari qay ahvolga tushishlari va kelajagiga salbiy ta'sir yetkazishi to'g'risida huquqiy maslahatlar, videoroliklar hamda hujjatli filmlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq ⁷ bo'ladi.

Ushbu yondashuv orqali navqiron avlodni oz bo'lsa-da jinoyat sodir etishdan qaytarishga uringan bo'lamiz. Yuqoridagi tahlilim davomida voyaga yetmaganlarni jinoyat sodir etishga undayotgan sabablar va bartaraf etish bo'yicha BMT tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatma asosida muhokama qilib o'tdik.

¹ Sakir Ozena,T, Aydin Eceb, Remzi Otoa, Yasar Tirascic, Suleyman Gorenc **Juvenile delinquency in a developing country: A province example in Turkey** International Journal of Law and Psychiatry Article in International Journal of Law and Psychiatry · July 2005 DOI: 10.1016/j.ijlp.2004.05.001 · Source: PubMed t: <https://www.researchgate.net/publication/7819603>

² **World youth report, 2003: the global situation of young people** Corporate author: [United Nations Department of Economic and Social Affairs](#) [144] ISBN:92-1-130228-5Collation:409 p., illus.Language:English Year of publication:2004Type of document:book library@unesco.org

² **World youth report, 2003: the global situation of young people** Corporate author: [United Nations Department of Economic and Social Affairs](#) [144] ISBN:92-1-130228-5Collation:409 p., illus.Language:English Year of publication:2004Type of document:book library@unesco.org

REFERENCES

Rasmiy elektron manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi info@stat.uz

Ilmiy maqolalar:

2. ISSN: 2181-1784 Sattorova Muharram Abdurazzoqovna Toshkent shahar yuridik texnikumi jinoiy-huquqiy fanlar kafedrası mudiri "VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI" ISSUE 11, Volume 2, November 2022

Xorijiy ilmiy maqolalar:

3. Ayano, G., Rooney, R., Pollard, C.M., Dantas, J.A.R., Lobo, R., Jeemi, Z., Burns, S., Cunningham, R., Monterosso, S., Millar, L., Hassan, S., Dovchin, S., Oliver, R., Coleman, K., Alati, R. **Risk and protective factors of youth crime: An umbrella review of systematic reviews and meta-analyses** (2024) Clinical Psychology Review, 113, art. no. 102479 DOI: 10.1016/j.cpr.2024.102479 Document Type: Article Publication Stage: Final Source: Scopus
4. J. David Hawkins, Todd I. Herrenkohl, David P. Farrington, Devon Brewer, Richard F. Catalano, Tracy W. Harachi, and Lynn Cothorn **Predictors of Youth Violence** U.S. Department of Justice Office of Justice Programs *Office of Juvenile Justice and Delinquency Prevention Juvenile Justice Clearinghouse Publication Reprint/Feedback P.O. Box 6000 Rockville, MD 20849-6000 800-638-8736 301-519-5600*
5. Sakir Ozena, T., Aydin Eceb, Remzi Otoa, Yasar Tirascic, Suleyman Gorenc **Juvenile delinquency in a developing country: A province example in Turkey** International Journal of Law and Psychiatry Article in International Journal of Law and Psychiatry · July 2005 DOI: 10.1016/j.ijlp.2004.05.001 · Source: PubMed t:
6. World youth report, 2003: the global situation of young people Corporate author: United Nations Department of Economic and Social Affairs [144] ISBN: 92-1-130228-5 Collation: 409 p., illus. Language: English Year of publication: 2004 Type of document: book

Internet manzillari:

7. <https://www.stat.uz/uz/>
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/voyaga-yetmaganlar-jinoyatchiligining-o-ziga-xos-xususiyatlari/viewer>
9. <https://www.scopus.com/inward/record.uri?eid=2-s2.0->
10. askncjrs@ncjrs.org

11. <https://www.researchgate.net/publication/7819603>
12. library@unesco.org